


PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2021



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

**MAXSUS SON
(2021-yil, dekabr)**

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, Maxsus son

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari: Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Hamroyev Aljon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O’rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otobek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA

Alijon HAMROEV. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students	7
Matlab TILAVOVA. Ta’lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari.....	13
G’ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.TEMIROVA. Markaziy osiyolik allomalarining tabiat haqidagi asarlaridan boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarni o‘qitishda foydalanish	18
Fayzullo QOSIMOV, Mayluda QOSIMOVA. Ikki sonning yig‘indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko‘ra shu sonlarni topishga doir masalalar	20
Fayzullo QOSIMOV, Mayluda QOSIMOVA. Ko‘paytirish va bo‘lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar.....	24
Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA. Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo.....	28
Nigora ADIZOVA. Qiziqmachoqlarda hayot sabog‘ining o‘ziga xos talqini.....	30
Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA. “Qiziqmachoq” atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari	33
Mohinur SAIDOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisinining masofaviy ta’limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari	38
Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish	42
Nodira ADIZOVA. Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida).....	47
Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO‘LATובה. Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi	49
Shoira BOBOYEVA. Metodikada ona tili ta’limini modellashtirishga innovatsion yondashuv	51
Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА. С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии	58
Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА. Влияние международного исследования pirls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника	64
Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА. Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей	68
Mehrinish HAKIMOVA. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta’minalashga doir metodik ta’mnot.....	72
Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА. “Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши” мавзусини ўқитища педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги	79
Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА. Преподавание биологии в школе	86
Shoira QURBONOVA. Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish	89
Gavhar SAIDOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o‘lchash malakalarini hosil qilish	92
Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayonning mazmuni	94
Mashxura YULDASHEVA. Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an’analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari	97
Yulduz Pulatova. Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons	101
Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA. Maktab o‘quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlari	107
Adiba BAHRONOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari	110
Saodat QODIROVA. Qadimiylar maqollar	113
Dilshod DAVRONOV. Zamon bilan hamnafas yashagan alloma	115
Yulduz NUROVA. Etnografiya va etnografiya munosabati	118
Malika XAYDAROVA. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari	122
Nodirabegim RAJABOVA. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘quvchilarga figura yuzi tushunchasini o‘rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish.....	125

Nodirabegim RAJABOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli	128
Yusufzoda Shabnam. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantrish	132
Mardon YARASHOV. Boshlang'ich ta'limning dars jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish vositalari.....	135
Dilora SIDIQOVA. Masofaviy ta'lif sharoitida "matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asosi	138
O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni takomillashitish..	142
Umida TOG'AYEVA. Loyihaviy ta'lif vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish yo'llari.....	146
Gavhar RUSTAMOVA. O'zbek xalq ertaklarida daraxtlar obrazi bilan bog'liq epik talqinlar	150
Feruza ABDULLAYEVA. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish.....	154
Feruza ABDULLAYEVA. Ta'lif tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli.....	156
Dilnoza XAYRULLAYEVA. 4-sinf ona tili darslarida gap bo'laklarining o'qitilishi	159
Mohichehra IBROHIMOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tishda "day game"dan foydalanish	163
Mahliyo HAYDARQULOVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning o'RNI.....	166
Madina OZODOVA. Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari	170
Nigora RO'ZIYEVA. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulush va kasr tushunchalariga doir masalalarni tushuntirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	172
Shahlo SAPAROVA. The classification of Elbek poems in 5 directions	175
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari	178

Malika XAYDAROVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNI TATBIQ ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish zarurati obyektiv sharoitlar bilan bog‘liqligi asoslangan, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etishning pedagogik imkoniyatlari, bu jarayonga ta’sir etuvchi omillar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etishning o‘ziga xos yutuq va kamchiliklari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, individual yondashuv, obyektiv sharoitlar, omillar, pedagogik imkoniyatlar, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi, intensiv rivojlanish, oilaviy tarbiya, o‘quv-biluv, o‘yin faoliyati, mehnat faoliyati.

В статье описаны педагогические возможности реализации индивидуального подхода к процессу начального образования, факторы, влияющие на этот процесс, исходя из того, что необходимость организации процесса начального образования на основе индивидуального подхода связана с объективными условиями. В статье также рассматриваются конкретные преимущества и недостатки организации процесса начального образования на основе индивидуального подхода.

Ключевые слова: начальное образование, индивидуальный подход, объективные условия, факторы, педагогические возможности, младший школьник, интенсивное развитие, семейное воспитание, обучение, игровая деятельность, трудовая деятельность.

This article describes the pedagogical possibilities of implementing an individual approach to the primary education process, the factors influencing this process, based on the fact that the need to organize the primary education process on the basis of an individual approach is related to objective conditions. The article also discusses the specific advantages and disadvantages of organizing the primary education process on the basis of an individual approach.

Key words: primary education, individual approach, objective conditions, factors, pedagogical opportunities, small school age student, intensive development, family upbringing, learning, play activities, work activities.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish zarurati obyektiv sharoitlar bilan bog‘liq. So‘nggi vaqtarda insonlarning umuminsoniy qadriyatlarga, jumladan, bilimlarga munosabatlari o‘zgarmoqda. Yosh avlodni hayot faoliyatining mazmuni va shakllarini erta yoshdanoq ongli tanlashga, o‘z bo‘lajak kasbini psixologik, jismoniy, aqliy xususiyatlari, shaxs sifatlari va xususiyatlarini hisobga olib bexato tanlashga ijtimoiy ehtiyoj o‘sib bormoqda.

Ta’lim vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta’lim jarayonida pedagoglar va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga sifat jihatidan o‘zgacha yondashuv zarurdir. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishning samarali metodlari va usullarini nazariy ishlab chiqish va joriy etish – zamonaviy maktabda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishning mumkin bo‘lgan yo‘llaridan biridir.

Asosiy qism. Ta’limdagi tub islohotlar, o‘qitishda shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashuvni ustuvor prinsip sifatida qabul qilish o‘quvchining layoqatlari va qobiliyatlariga yaqinlashtirilgan individual bilish jarayonini har tomonlama nazariy asoslash va ilmiy-metodik ta’minalashni talab etadi.

Mazkur jarayonda boshlang‘ich ta’lim davri yetakchi rolni egallaydi. Aynan mazkur davrda shaxsning intensiv rivojlanishi va sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. Kichik maktab yosh davri o‘quv-biluv motivlarini shakllantirishda va bolalarning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishda, ijtimoiy va axloqiy qoidalarni o‘zlashtirishlarida senzitiv hisoblanadi.

Pedagogika ensiklopediyasida “Individual yondashuv metodi – (lot. individuum – bo‘linmas) pedagogik jarayonni o‘quvchining individual o‘ziga xos jihatlari (mijozi, xarakteri, qobiliyati, moyilligi va boshqalar)ni e’tiborga oлган holda amalga oshirish metodi” sifatida talqin etiladi [1, 311].

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish uchun maktab ham yangicha ish shakliga o‘tishi lozim. Bu jarayonda:

- sinfdan tashqari ta’limning turlicha shakllarini yo‘lga qo‘yish;
- o‘quvchilar mustaqil ishlarini takomillashtirish va ularning mazmunini boyitish kabilari.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etishning qulayliklari	Boshlang‘ich ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etishning kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> - o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini hisobga olish imkoniyati tug‘iladi; – o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishlari ortadi; – mustaqil ishlarning ahamiyati oshadi; – individual topshiriqlarni bajarish jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi. 	<ul style="list-style-type: none"> - sinf-dars tizimida o‘qituvchining har bir o‘quvchi bilan individual shug‘ullanish imkoniyati chegaralangan; - u yoki bu o‘quv predmetini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish natijasida ta’lim jarayonining samaradorligiga putur yetadi; - sinfdagi barcha o‘quvchilar ham o‘quv materiallarini o‘zlarini mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatiga ega emaslar.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yoshiga ko‘ra; jinsiga ko‘ra; qiziqishlariga asoslangan holda; aqliy rivojlanish darajasiga ko‘ra; shaxsiy psixologik xususiyatlariga ko‘ra; salomatlik darajasiga ko‘ra individual yondashuvni qo‘llash mumkin.

U.Q.Maqsdov[2]ning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida irodaning umumiy yetishmasligi ham yosh xususiyati hisoblanadi: kichik mакtab o‘quvchisi belgilangan maqsad uchun uzoq muddatli kurashish, qiyinchilik va to‘sиллarni yengishning katta tajribasiga ega bo‘lmaydi. Bu davrdagi o‘quvchi muvaffaqiyatsizlikda noumid bo‘lishi, o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini yo‘qotishi mumkin. Ko‘pincha qaysarlik, o‘jarlik kuzatiladi. Ularning odatiy sababi – oilaviy tarbiyaning xatoliklari hisoblanadi. Bola uning barcha istaklari va talablari qondirilishiga odatlangan, uning talablari rad etilmagan. Qaysarlik va o‘jarlik – bu unga maktabda qo‘yiladigan qat‘iy talablarga qarshi bolaning o‘ziga xos noroziligining shaklidir [2, 20].

Kichik mакtab yosh davri shaxsning axloqiy sifatlari rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar taqdim etadi. Bunga o‘quvchilarning bo‘ysinuvchanliklari va ma‘lum ishonuvchanliklari, taqlidga moyilliklari, asosiysi esa o‘qituvchining katta obro‘si yordam beradi. Shuning uchun bu yosh davrida o‘qituvchining roli ulkan bo‘lib, uning individual yondashuvi shaxsning ijtimoiylashuviga, axloqiy xulqining shakllanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, kichik mакtab yosh davrida individual yondashuvni tadbiq etish natijasida ma’naviy me’yorlar va xulq qoidalarini o‘zlashtirish sodir bo‘ladi, shaxsning ijtimoiy yo‘nalganligi shakllana boshlaydi.

Muhokamalar va natijalar. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar xarakteri ayrim xususiyatlar bilan farqlanadi. Ko‘pincha, ular juda impulsivlar, shuningdek impulslar, undovlar ta’siri ostida o‘ylamay va barcha sharoitlarni hisobga olmay, tasodifly holatlar bo‘yicha darhol harakat qilishga moyil bo‘ladilar. Buning sababi xulqni irodaviy tartibga solishning yoshga oid zaifligida faol tashqi turkiga ehtiyoj hisoblanadi, natijada bola shaxsiga nisbatan individual yondashuv zarurati vujudga keladi.

Shu tariqa, R.G.Safarova[3]ning fikricha, bugungi kunda boshlang‘ich ta’limdagи o‘quvchilarning yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha chegaralariga ega bo‘lib, mazkur yosh davrida quyidagi psixologik yangi hosilalar kuzatiladi – psixik jarayonlarning tasodifiyligi, xatti-harakatlarning ichki sharti, refleksiya. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda bu davrda ko‘rgazmali-obrazli fikrlashdan og‘zaki-mantiqiy, tushunchaviy fikrlashga o‘tish sodir bo‘ladi. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarning pedagogik xususiyatlariga, bu davrda bolalar juda emotsionalliklarini kiritish mumkin va pedagoglarning asosiy vazifalari bolalarni kelgusi o‘quv faoliyatiga ularning olamni idrok etishlari orqali motivatsiyalarini maqsadga muvofiq oshirish hisoblanadi.

Bundan tashqari, kichik mакtab yosh davrida bola o‘yinli, mehnat faoliyati, sport va san’at bilan shug‘ullanish kabi faoliyat turlarini bajaradi. Ammo o‘quv faoliyati yetakchi bo‘lib hisoblanadi. Kichik mакtab yoshidagi bolalar uchun o‘qituvchining obro‘si ta’lim olish uchun eng muhim shart hisoblanadi. Mazkur yosh davrida bola shaxsining o‘z-o‘ziga bahosiga uning o‘quv faoliyatidagi o‘zlashtirishi katta ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, kichik mакtab yosh davrida bolalarda yangi munosabatlar yuzaga keladi, bular “bola - o‘qituvchi”, “o‘qituvchi - bola”.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etilganda kichik mакtab yoshidagi har bir o‘quvchining o‘zligi uning “men”ida ifodalangan bo‘lib, unda o‘quvchi hayotining muayyan davrida egallagan bilimlari o‘z ifodasini topadi. O‘quvchi hayotining dastlabki davrida o‘zi

haqidagi tasavvurlari bilan u qanday bo‘lishi kerak, uni atrofdagilar qanday qabul qilishi haqidagi bilimlari orqali namoyon bo‘ladi [4].

Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etishda bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitning qaror topganligi;
- fuqarolar ma’naviy-axloqiy yetukligini ta’minalash masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi;
- ta’lim-tarbiya ishlarining muayyan maqsad asosida tizimli, uzliksiz va izchil olib borilayotganligi;
- tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega subyektlar imkoniyatlarining yagona ijtimoiy maqsadni amalga oshirilishiga yo‘naltirilganligi;
- shaxs omilining ijtimoiy munosabatlar jarayonida yetakchi mavqega ega bo‘lishi va boshqalar.


Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuv tadbiq etilganda quyidagilarga erishiladi:

- jamoada munosib o‘rin topa olmagan hamda maqsadga muvofiq shakllanmagan kichik mifik yoshidagi o‘quvchilarni aniqlash va tashxislash imkoniyati tug‘iladi;
- o‘qituvchilar uchun bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga ko‘maklashish, bilimdon o‘quvchilarga e’tibor qaratish imkoniyati vujudga keladi;
- o‘qitish sifati umumiy darajasi pasayishining oldi olinadi;
- axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirishga qiynaladigan, murakkab o‘quvchilar bilan samarali ishslash imkoniyati tug‘iladi;
- yaxshi o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda o‘quv jarayonida tezkor harakat qilish imkoniyati vujudga keladi;
- o‘quvchilarda o‘zligini anglash, o‘z layoqatlariga ishonch, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda esa o‘qishlaridagi muvaffaqiyatlaridan ruhlanish, yomon illatlardan xalos bo‘lish istagi paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir o‘quvchi individual shaxs sifatida o‘ziga xos va takrorlanmasdir. U shu o‘ziga xosligiga tayangan holda atrofdagilar va o‘z-o‘ziga munosabatda bo‘ladi. Kichik mifik yoshidagi o‘quvchining ongi va faoliyati birligi uning xatti-harakatlari va muloqotida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Pedagogika ensiklopediya. II jild./ tuzuvchilar: Jamoa. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. -368 b.
2. Maqsudov U.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi vositasida ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik tizimi // Ped. fan. bo‘yicha falsafa dok (PhD).diss. ... – Namangan, 2021. –117 b.
3. Safarova R.G. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tatbiq etiladigan yangi yondashuvlar // “Boshlang‘ich ta’limni modernizatsiyalash orqali o‘quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish” mavzusidagi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari Forumi materialari. –Toshkent, 2016-yil 13-14-iyul. 95-96-betlar.
4. Nurjanova R. Boshlang‘ich ta’lim mazmunini prognostika qilishning pedagogik omillari. Ped. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T., 2006. –118 b.
5. Хайдарова М.Д. Способы реализации индивидуального подхода к начальному образованию // European research. № 6(64), 2020. С. 71.
6. Хайдарова М.Д. Роль интеграции в школьном образовании // Педагогика и современность, 2013. № 4. С. 33-36.
7. Хайдарова М.Д. Интеграция уроков технологии с другими предметами // Теория и практика современной науки, 2019. № 5. С. 755-758.
8. Djamshidovna X.M. Mechanisms for implementing an individualized approach to primary education // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol., 2020. Т. 8. № 1.
9. Хайдарова М.Д., Юлдашев Б. Н., Узбекистан Б. Информационные технологии в трудовом обучении школьников //teacher Namangan region, Norin district school № 40 Uzbekistan, Namangan city training of dialogical speech in the english language, 2019. С. 542.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali
maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma
sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet
tahriri-nashriyot bo’limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g’aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

**PEDAGOGIK
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik
jurnal**

2021-yil maxsuus son

**2001-yil iyul oyidan
chiqa boshlagan.**

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliv o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:

Aljon HAMROYEV.

Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.

Muharrir: O‘g‘iljon OLLOQOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi. Chop etish sifati uchun
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 10.01.2022

Bosmaxonaga topshirish vaqtி

14.01.2022

Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog‘i – 22,5

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 10

Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadreddin Salim Buxoriy” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Buxoro shahri
M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.